



O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta'limi vazirligi

ISSN: 2992-9008
UDK: 37

TA'LIM VA TARAQQIYOT

Ilmiy-uslubiy jurnali



2026-YIL 4-SON

www.journal.namspi.uz

Bosh muharrir: Namangan davlat pedagogika instituti rektori B.E.Xusanov
Mas'ul muharrir: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor M.R.Qodirxonov
Mas'ul muharrir o'rinbosari: Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i J.A.Yuldashev

TAHRIR HAY'ATI

Aniq va tabiiy fanlar: k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, k.f.d., prof. N.Vohidova, k.f.d., dots. M.Qodirxonov, b.f.d., dots. A.Batashov, f-m.f.n., dots., T.Abdullayev, p.f.n., dots. M.Eshnazarova, p.f.n., dots. G'.Nafasov, p.f.n., dots. M.Boltayeva.

Texnika fanlari: t.f.d., prof. A.Umarov, t.f.d., prof. A.Qayumov, PhD, dots. Sh.Xudoyqulov, PhD, dots. Abdunazarov.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar: s.f.d., prof. T.Fayzullayev, tar.f.d., prof. A.Rasulov. f.f.d., prof. M.Ismoilov, i.f.d., dots. N.Sotivoldiyev, t.f.n., dots. A.Isoqboyev, f.f.n., dots. O.Mamatov, t.f.n., dots. Z.Haydarov, PhD. J.Yuldashev, PhD. A.Abdullayev.

Pedagogika fanlari: p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. X.Najmiddinova, p.f.d., prof. T.Ismoilov, p.f.d., prof. S.Abdullayev. p.f.d., prof., M.Y.Sobirova, p.f.d., prof., R.Zamilova, p.f.d., prof. Sh.Xujamberdiyeva, p.f.d., dost. M.Asqarova, PhD, dots. M.Asranboyeva.

Filologiya fanlari: fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, f.f.d., dots. X.Shokirova, p.f.n., dots. S.Misirov, p.f.n., dots. Sh.Ubaydullayev, PhD., dots. P.Lutfullayev, PhD., dots. M.Yakubbayev.

Texnik muharrir: R.Tursunov

Tahririyat manzili: Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy.

Pochta indeksi: 160136, **Faks:** (0369) 227-27-21,

Email: Info@namspi.uz

"Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali elektron to'plam sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi **Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA)ning 2022-yil 25-oktabrdagi № 045044 raqamli guvohnomasi** asosida chop etiladi. Jurnal **Oliy Attestatsiya komissiyasining 2024-yil 30-noyabrdagi (№ 364/5) yig'ilishi qaroriga asosan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan.** UDK: 37, Xalqaro standartlashtirish raqami (ISSN): 2992-9008.

Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA HISSIY INTELEKTNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK OMILLARI

Abrayeva Mehrangiz Bekmirza qizi

Ilmiy tadqiqotchi

mehrangizabrayeva1@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida hissiy intellektni rivojlantirishga ta'sir etuvchi pedagogik omillar tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning intellektual rivojlanishi bilan bir qatorda ularning hissiy va ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Tadqiqotda hissiy intellektning mazmun-mohiyati hamda uning boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar shaxsiy rivojlanishidagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, ta'limiy-psixologik muhit, pedagogik hamkorlik, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlar, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish hamda hamkorlikka asoslangan ta'lim faoliyati hissiy intellektni rivojlantirishning muhim pedagogik omillari sifatida asoslanadi. Ushbu omillarning o'zaro uyg'unligi o'quvchilarning o'z hissiyotlarini anglash va boshqarish, boshqalarning hissiy holatini tushunish hamda samarali muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi ta'kidlanadi. Maqola natijalaridan boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning hissiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan pedagogik faoliyatni takomillashtirishda foydalanish mumkin.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, hissiy intellekt, pedagogik omillar, hissiy rivojlanish, pedagogik hamkorlik, ta'lim muhiti, muloqot, emotsional kompetensiya, o'quvchi, shaxs rivojlanishi.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ

Аннотация. В данной статье анализируются педагогические факторы, влияющие на развитие эмоционального интеллекта учащихся начальных классов. В современном образовательном процессе наряду с интеллектуальным развитием учащихся важной педагогической задачей является формирование их эмоциональных и социальных компетенций. В исследовании раскрываются сущность эмоционального интеллекта и его роль в личностном развитии детей младшего школьного возраста. Обосновываются такие важные педагогические факторы развития эмоционального интеллекта, как образовательная и психологическая среда, педагогическое сотрудничество, взаимоотношения между учителем и учащимися, учет индивидуальных особенностей школьников и организация совместной учебной деятельности. Подчеркивается, что взаимосвязь и согласованность данных факторов способствует развитию у учащихся способности осознавать и регулировать собственные эмоции, понимать эмоциональное состояние окружающих и эффективно взаимодействовать с ними. Результаты статьи могут быть использованы при совершенствовании педагогической деятельности, направленной на поддержку эмоционального развития учащихся в процессе начального образования.

Ключевые слова: начальное образование, эмоциональный интеллект, педагогические факторы, эмоциональное развитие, педагогическое сотрудничество, образовательная среда, общение, эмоциональная компетентность, учащийся, развитие личности.

PEDAGOGICAL FACTORS OF DEVELOPING EMOTIONAL INTELLIGENCE IN PRIMARY STUDENTS

Abstract. This article analyzes the pedagogical factors influencing the development of emotional intelligence in primary school students. In modern education, along with students' intellectual development, fostering their emotional and social competencies is considered an important pedagogical task. The study explores the essence of emotional intelligence and its role in the personal development of children of primary school age. It also substantiates the educational and psychological environment, pedagogical cooperation, teacher–student relationships, consideration of students' individual characteristics, and collaborative learning activities as significant pedagogical factors in the development of emotional intelligence. The study emphasizes that the interaction and consistency of these factors contribute to students' ability to recognize and regulate their own emotions, understand the emotional states of others, and communicate effectively.

The findings of the article may be used to improve pedagogical practices aimed at supporting students' emotional development in the primary education process.

Keywords: primary education, emotional intelligence, pedagogical factors, emotional development, pedagogical cooperation, educational environment, communication, emotional competence, student, personality development.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimida o'quvchilarning faqat bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish bilan cheklanib qolmasdan, ularning shaxsiy, ijtimoiy va hissiy rivojlanishini ta'minlash muhim pedagogik vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchining o'z his-tuyg'ularini anglay olishi, ularni boshqara olishi, atrofdagilarning hissiy holatini tushunishi hamda samarali muloqotga kirisha olishi uning har tomonlama rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan hissiy intellekt shaxsning nafaqat ijtimoiy munosabatlari, balki ta'lim faoliyatidagi faolligi va muvaffaqiyatiga ham ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda [6].

Hissiy intellekt tushunchasi ilmiy adabiyotlarda shaxsning hissiyotlarni idrok etish, tushunish va boshqarish bilan bog'liq qobiliyatlari majmui sifatida talqin qilinadi. Mazkur tushunchaning nazariy asoslari P. Salovey va J.D. Mayer tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, keyinchalik hissiy intellektning mazmuni, tarkibiy komponentlari va shaxs faoliyatidagi ahamiyati keng tadqiq etilgan [1;16]. D. Goleman esa hissiy intellektning o'zini anglash, o'zini boshqarish, empatiya va ijtimoiy ko'nikmalar bilan bog'liq jihatlariga alohida e'tibor qaratgan [2].

Boshlang'ich maktab yoshi bolaning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu davrda o'quvchilarning hissiy holatlarini anglash, o'z kechinmalarini ifodalash, tengdoshlari va kattalar bilan munosabatlarni yo'lga qo'yish kabi ko'nikmalari faol shakllanadi. Ilmiy tadqiqotlarda boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarda hissiy intellektni rivojlantirish ularning ijtimoiylashuvi, o'zini boshqarishi va muloqot faoliyatini takomillashtirish bilan chambarchas bog'liqligi ta'kidlanadi [7;8].

Ta'lim jarayonida hissiy intellektning rivojlanishi o'quvchining individual xususiyatlari bilangina belgilanmaydi. Mazkur jarayonga ta'lim muhiti, o'qituvchining pedagogik faoliyati, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlar, hamkorlikka asoslangan faoliyat hamda o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish kabi qator pedagogik omillar ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining hissiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun qulay psixologik-pedagogik sharoit yaratish hamda maqsadli pedagogik ta'sirni tashkil etish zarurligi qayd etilgan [7;11].

Shu bilan birga, hissiy intellekti rivojlangan o'quvchilarning ta'lim faoliyatiga munosabati, o'quv motivatsiyasi va o'zaro munosabatlarida ijobiy o'zgarishlar kuzatilishi mumkin. Xususan, boshlang'ich sinf o'quvchilarida hissiy intellekt va akademik motivatsiya o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjudligi tadqiqotlarda ko'rsatib berilgan [6]. Bu esa boshlang'ich ta'lim jarayonida hissiy intellektni rivojlantirishga ta'sir

etuvchi pedagogik omillarni aniqlash va ulardan samarali foydalanish masalasining ilmiy-amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

Mazkur maqolaning maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchilarida hissiy intellektni rivojlantirishga ta'sir etuvchi asosiy pedagogik omillarni aniqlash hamda ularning ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'rni va imkoniyatlarini ilmiy-pedagogik jihatdan asoslashdan iborat.

TADQIQOT OBYEKTI VA QO'LLANILGAN METODLAR

Tadqiqotning obyekti boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning hissiy intellektini rivojlantirish jarayoni hisoblanadi. Tadqiqotning predmeti esa boshlang'ich sinf o'quvchilarida hissiy intellektni shakllantirishga ta'sir etuvchi pedagogik omillar, ularni ta'lim jarayonida qo'llash imkoniyatlari hamda ushbu jarayonni pedagogik jihatdan samarali tashkil etish shart-sharoitlaridan iborat.

Tadqiqotning asosiy maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchilarida hissiy intellektni rivojlantirishga ta'sir etuvchi pedagogik omillarni aniqlash, ularning mazmun-mohiyatini ochib berish hamda ta'lim-tarbiya jarayonidagi pedagogik imkoniyatlarini asoslashdan iborat. Mazkur maqsadga erishish uchun hissiy intellekt tushunchasining ilmiy-nazariy mazmuni, uning tarkibiy qismlari va boshlang'ich maktab yoshidagi o'quvchilar rivojlanishidagi ahamiyati o'rganildi.

Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik metodlardan foydalanildi. Nazariy metodlar tarkibiga ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, tizimlashtirish va pedagogik hodisalarning mazmunini aniqlash usullari kiritildi. Mazkur metodlar orqali hissiy intellektning mohiyati, uning shaxs rivojlanishidagi o'rni hamda ta'lim jarayonida uni rivojlantirishga oid ilmiy qarashlar o'rganildi.

Ilmiy manbalarni tahlil qilishda P. Salovey va J.D. Mayer tomonidan ilgari surilgan hissiy intellekt konsepsiyasiga, D. Goleman tomonidan ishlab chiqilgan o'zini anglash, o'zini boshqarish, empatiya va ijtimoiy ko'nikmalar bilan bog'liq qarashlarga alohida

e'tibor qaratildi [1;2]. Shuningdek, boshlang'ich ta'lim yoshidagi bolalarda hissiy intellektning rivojlanish xususiyatlari hamda uning akademik motivatsiya va ta'lim faoliyati bilan bog'liqligiga oid zamonaviy tadqiqotlar tahlil qilindi [4;11].

Tadqiqotda pedagogik kuzatish metodidan ham foydalanildi. Kuzatish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining turli ta'limiy va ijtimoiy vaziyatlarda o'z hissiyotlarini ifodalashi, tengdoshlari bilan munosabatga kirishishi, nizoli vaziyatlarga munosabati, o'z fikrini bayon qilishi hamda boshqa o'quvchilarning hissiy holatiga munosabat bildirishi kabi jihatlariga e'tibor qaratildi.

Shuningdek, taqqoslash va umumlashtirish metodlari yordamida hissiy intellektni rivojlantirishga ta'sir qiluvchi pedagogik omillar guruhlashtirildi. Natijada ta'limiy-psixologik muhit, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabat, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish, hamkorlikka asoslangan ta'lim faoliyati, empatiyani rivojlantirish hamda o'z hissiyotlarini anglash va boshqarishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat asosiy omillar sifatida ajratib ko'rsatildi.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodlarning o'zaro uyg'unligi hissiy intellektni rivojlantirish jarayonini faqat nazariy jihatdan emas, balki boshlang'ich ta'limning amaliy jarayoni bilan bog'liq holda tahlil qilish imkonini berdi. Shu asosda boshlang'ich sinf o'quvchilarining hissiy intellektini rivojlantirishda pedagogik muhit, o'qituvchi faoliyati va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot jarayonining umumiy mantiqiy ketma-ketligini quyidagicha ifodalash mumkin:

ilmiy manbalarni o'rganish → hissiy intellektning tarkibiy qismlarini aniqlash →
pedagogik omillarni guruhlashtirish → boshlang'ich ta'lim jarayonidagi imkoniyatlarni
tahlil qilish → pedagogik xulosalarni shakllantirish.

Mazkur metodologik yondashuv keyingi bosqichda aniqlangan pedagogik omillarning mazmunini batafsil tahlil qilish va ularning boshlang'ich sinf o'quvchilarining hissiy rivojlanishiga ta'sirini yoritish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

OLINGAN NATIJALAR VA ULARNING TAHLILI

Tadqiqot davomida o'rganilgan ilmiy-pedagogik manbalar, nazariy qarashlar hamda boshlang'ich ta'lim jarayoniga oid tahlillar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida hissiy intellektni rivojlantirishga ta'sir etuvchi pedagogik omillar tizimlashtirildi. Tahlil natijalariga ko'ra, hissiy intellektning shakllanishi o'quvchining individual xususiyatlari bilangina emas, balki u ta'lim olayotgan pedagogik muhit, o'qituvchi faoliyati va tengdoshlari bilan tashkil etiladigan munosabatlar bilan ham bevosita bog'liq.

Boshlang'ich maktab yoshida bola o'z hissiyotlarini anglash, ularni nomlash, turli vaziyatlarda o'z xatti-harakatlarini nazorat qilish va atrofidagi insonlarning hissiy holatini tushunishni faol o'rganadi. Shu sababli mazkur davrda hissiy intellektni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik ta'sir izchil, maqsadli va bolaning yosh xususiyatlariga mos tashkil etilishi lozim.

Tadqiqot natijasida aniqlangan asosiy pedagogik omillar quyidagi jadvalda umumlashtirildi.

1-jadval

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida hissiy intellektni rivojlantirishning asosiy pedagogik omillari

№	Pedagogik omil	Mazmuni	Rivojlantiriladigan hissiy ko'nikmalar
	Ta'limiy-psixologik muhit	O'quvchi o'zini xavfsiz, erkin va qadrlangan his qiladigan muhitni yaratish	Hissiy xavfsizlik, o'ziga ishonch

	O'qituvchi-o'quvchi munosabati	O'zaro hurmat, ishonch, tinglash va qo'llab-quvvatlashga asoslangan munosabat	O'z hissiyotini ifodalash, muloqot
	Individual yondashuv	O'quvchilarning yosh, individual va hissiy xususiyatlarini hisobga olish	O'zini anglash, o'zini boshqarish
	Hamkorlikdagi faoliyat	Juftlik va kichik guruhlarda birgalikda topshiriqlar bajarish	Empatiya, tinglash, hamkorlik
	Hissiyotlarni anglash va boshqarish	O'quvchining o'z hissiy holatini aniqlashi va boshqarish usullarini egallashi	O'zini boshqarish
	Empatiya va muloqot	Boshqalarning hissiy holatini tushunish va unga mos munosabat bildirish	Empatiya, ijtimoiy ko'nikmalar

Jadvaldan ko'rinadiki, hissiy intellektni rivojlantirish jarayonida pedagogik omillar bir-biridan ajralgan holda emas, balki o'zaro bog'liq tizim sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, qulay psixologik muhit o'quvchining o'z fikrini va hissiyotlarini erkin ifodalashiga imkon yaratadi. O'qituvchi tomonidan qo'llab-quvvatlovchi munosabatning mavjudligi esa o'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi. Bu ikki omil keyinchalik o'quvchining tengdoshlari bilan hamkorlik qilishi va muloqotga kirishishi uchun qulay sharoit yaratadi.

Ta'limiy-psixologik muhitning ta'siri

Boshlang'ich sinf o'quvchisining hissiy rivojlanishida ta'limiy-psixologik muhit alohida ahamiyatga ega. O'quvchi o'zini sinf jamoasining to'laqonli a'zosi sifatida his qilishi, o'z fikrini erkin bildira olishi va xatoga yo'l qo'yganida salbiy munosabatga duch kelmasligi uning hissiy barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bunday muhitda o'quvchi o'z kechinmalarini yashirmasdan ifodalashga, o'zining xatti-harakatlarini tahlil qilishga va zarur holatlarda yordam so'rashga o'rganadi. Shu jihatdan o'qituvchining sinfdagi muloqot madaniyati va pedagogik munosabati hissiy intellektni rivojlantirishning muhim sharti sifatida namoyon bo'ladi.

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarning o'rni

Tadqiqot tahlili o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ijobiy munosabatlar hissiy intellekt rivojlanishiga bevosita pedagogik ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. O'qituvchining o'quvchini tinglashi, uning hissiy holatini tushunishga harakat qilishi va muammoli vaziyatlarda vazmin munosabatda bo'lishi o'quvchi uchun amaliy namuna vazifasini bajaradi.

O'quvchilar kattalarning xatti-harakatlarini kuzatish orqali turli hissiy vaziyatlarda qanday munosabat bildirishni o'rganadilar. Shu sababli o'qituvchining o'z hissiyotlarini boshqarishi, keskin vaziyatlarda hissiy barqarorlikni saqlashi va o'quvchilarga hurmat bilan murojaat qilishi hissiy tarbiyaning tabiiy vositasiga aylanadi.

Individual xususiyatlarni hisobga olish

Boshlang'ich sinf o'quvchilari hissiy reaksiyasi, xarakteri, muloqotga kirishuvchanligi va o'z kechinmalarini ifodalash qobiliyati bilan farqlanadi. Shuning uchun hissiy intellektni rivojlantirishda individual yondashuv muhim pedagogik omillardan biri hisoblanadi.

Ayrim o'quvchilar o'z his-tuyg'ularini ochiq ifodalashga moyil bo'lsa, ayrimlari o'z kechinmalarini ichida saqlashi mumkin. Bunday holatda o'qituvchi o'quvchini majburlamasdan, turli pedagogik topshiriqlar orqali uning hissiy holatini ifodalashiga imkon yaratishi zarur.

Individual yondashuvning asosiy mazmuni o'quvchiga tayyor hissiy javobni berish emas, balki uni o'z hissiyotini mustaqil anglash va izohlashga yo'naltirishdan iborat. Masalan, "Bugun o'zingni qanday his qilyapsan?", "Nima sababdan shunday his qilyapsan?", "Bu vaziyatda o'zingni qanday tutishing mumkin?" kabi savollar o'quvchining hissiy refleksiya qilishini rivojlantirishi mumkin.

Hamkorlikka asoslangan faoliyat

Hissiy intellektni rivojlantirishda hamkorlikdagi faoliyatning imkoniyatlari yuqori. Juftlik va kichik guruhlarda tashkil etiladigan topshiriqlar davomida o'quvchilar o'z fikrlarini bayon qilish, boshqa o'quvchini tinglash, kelishish va turli fikrlarni qabul qilish tajribasiga ega bo'ladilar.

Ayniqsa, guruhli topshiriqlarda umumiy maqsadga erishish uchun o'quvchilarning bir-birini qo'llab-quvvatlashi talab qilinadi. Bu jarayonda o'quvchi nafaqat o'z manfaatini, balki guruhdagi boshqa a'zolarining fikri va hissiy holatini ham hisobga olishni o'rganadi. Natijada empatiya, hamkorlik va ijtimoiy muloqot ko'nikmalari rivojlanadi.

Hissiyotlarni anglash va boshqarish

Hissiy intellektning muhim tarkibiy jihatlaridan biri o'z hissiyotlarini anglash va boshqarish qobiliyatidir [1;2]. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mazkur ko'nikmani shakllantirish uchun dars jarayoniga sodda, yoshga mos refleksiv topshiriqlarni kiritish mumkin.

Masalan, o'quvchilarga turli hissiy holatlar aks etgan vaziyatlarni taqdim etish va ulardan qahramonning hissiyotini aniqlash so'raladi. Keyingi bosqichda esa o'quvchi shu vaziyatda o'zi qanday yo'l tutishini tushuntiradi. Bunday topshiriqlar o'quvchining hissiyot va xatti-harakat o'rtasidagi bog'liqlikni tushunishiga yordam beradi.

Shuningdek, o'quvchilarga salbiy hissiy holat yuzaga kelganida uni boshqarishning maqbul usullarini topish topshirig'ini berish mumkin. Bu orqali o'quvchi hissiy holatni

shunchaki boshdan kechirish bilan cheklanmay, uni boshqarish mumkinligini anglay boshlaydi.

Empatiya va samarali muloqot

Empatiya boshqa insonning hissiy holatini tushunish va uning kechinmalariga nisbatan mos munosabat bildirish bilan bog'liq. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida empatiyani rivojlantirish uchun badiiy matnlar, rolli o'yinlar, muammoli vaziyatlar va guruhli muhokamalardan foydalanish mumkin.

Masalan, o'quvchilarga hikoya qahramonining muayyan vaziyatdagi hissiy holatini aniqlash topshiriladi. Keyin "Agar sen uning o'rnida bo'lganingda nima qilarding?", "Unga qanday yordam berarding?" kabi savollar beriladi. Ushbu faoliyatlar o'quvchini vaziyatga boshqa inson nuqtayi nazaridan qarashga undaydi.

Shuningdek, samarali muloqotni shakllantirish uchun o'quvchilarga suhbatdoshini bo'lmasdan tinglash, fikrini hurmat qilish, o'z nuqtayi nazarini muloyim ifodalash va kelishmovchilik yuzaga kelganda murosaga kelish kabi qoidalarni amaliy vaziyatlarda o'rgatish mumkin.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari boshlang'ich sinf o'quvchilarida hissiy intellektni rivojlantirish ko'p omilli pedagogik jarayon ekanligini ko'rsatadi. Unda ta'lim muhiti, o'qituvchi shaxsi, individual yondashuv, hamkorlikdagi faoliyat, hissiy refleksiya va empatik muloqot bir-birini to'ldiruvchi omillar sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur omillarning uyg'un tashkil etilishi o'quvchilarning hissiy va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun zarur pedagogik sharoitlarni yaratadi.

XULOSA

Tadqiqot natijalarini umumlashtirish asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida hissiy intellektni rivojlantirish zamonaviy boshlang'ich ta'lim jarayonining muhim pedagogik vazifalaridan biri ekanligi aniqlandi. Hissiy intellekt o'quvchining o'z hissiyotlarini anglash va boshqarish, boshqa insonlarning hissiy holatini tushunish hamda ular bilan samarali muloqot qilish imkonini beruvchi muhim kompetensiyalar

majmuasi sifatida namoyon bo'ladi. Mavjud ilmiy manbalarda ham hissiy intellektning o'quvchilarning ijtimoiylashuvi, muloqot faoliyati va ta'lim motivatsiyasi bilan bog'liqligi qayd etilgan [6;8].

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida hissiy intellektning rivojlanishi faqat o'quvchining individual xususiyatlariga bog'liq bo'lmay, ta'lim jarayonida yaratiladigan pedagogik shart-sharoitlar bilan ham chambarchas bog'liq. Ayniqsa, qulay ta'limiy-psixologik muhit, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ijobiy munosabat, individual yondashuv, hamkorlikka asoslangan faoliyat, hissiyotlarni anglash va boshqarishga yo'naltirilgan topshiriqlar hamda empatik muloqot hissiy intellektni rivojlantirishning asosiy pedagogik omillari sifatida belgilandi.

Qulay psixologik muhit o'quvchining o'z fikri va hissiyotlarini erkin ifodalashi uchun zarur sharoit yaratadi. Bunday muhitda o'quvchi xato qilishdan qo'rqmasdan o'z fikrini bayon qilish, o'z hissiy holatini tushuntirish va zarur hollarda yordam so'rash imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'qituvchisi tomonidan o'zaro hurmat, ishonch va qo'llab-quvvatlashga asoslangan ta'lim muhitini yaratish muhim hisoblanadi.

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlar ham hissiy intellekt rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. O'qituvchining o'z hissiyotlarini boshqara olishi, o'quvchilarni tinglashi, ularning kechinmalariga hurmat bilan munosabatda bo'lishi bolalar uchun amaliy namuna vazifasini bajaradi. Shu jihatdan pedagogning shaxsiy va kasbiy madaniyati o'quvchilarning hissiy kompetensiyalarini shakllantirishga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biridir.

Tadqiqot natijalari asosida boshlang'ich ta'lim amaliyoti uchun quyidagi pedagogik tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

- dars jarayonida o'quvchilarning hissiy holatini aniqlash va ifodalashga imkon beruvchi qisqa reflektiv topshiriqlardan foydalanish;

- o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda individual pedagogik yondashuvni tashkil etish;
- juftlik va kichik guruhlardagi hamkorlik faoliyatidan muntazam foydalanish;
- badiiy matn va hayotiy vaziyatlar asosida empatiyani rivojlantiruvchi savol va topshiriqlarni qo'llash;
- o'quvchilarga nizoli vaziyatlarni tinch va konstruktiv tarzda hal qilish usullarini o'rgatish;
- o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida o'zaro hurmat va ishonchga asoslangan pedagogik munosabatni shakllantirish;
- o'quvchilarning hissiy rivojlanishini faqat alohida mashg'ulotlar bilan cheklamasdan, barcha fanlar va tarbiyaviy faoliyat mazmuniga integratsiya qilish.

Umuman olganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarida hissiy intellektni rivojlantirish tizimli va uzluksiz pedagogik jarayon sifatida tashkil etilishi lozim. Hissiy intellektning rivojlanishi o'quvchilarning o'zini anglash va boshqarish qobiliyatlarini takomillashtirish bilan bir qatorda, ularning tengdoshlari va kattalar bilan samarali munosabat o'rnatishiga ham yordam beradi. Shuning uchun boshlang'ich ta'limda intellektual rivojlanish bilan bir qatorda o'quvchilarning hissiy va ijtimoiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvlarni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

Mazkur xulosalar boshlang'ich ta'lim jarayonida hissiy intellektni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik faoliyatni takomillashtirish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Kelgusidagi tadqiqotlarda esa ushbu pedagogik omillarning samaradorligini tajriba-sinov ishlari asosida aniqlash, o'quvchilarning hissiy intellekt darajasini baholash mezonlarini ishlab chiqish va amaliy-metodik tavsiyalarni takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mayer J.D., Salovey P. What is Emotional Intelligence? Emotional Development and Emotional Intelligence: Educational Implications. – New York: Basic Books, 1997.

2. Goleman D. Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. – New York: Bantam Books, 1995.
3. Bar-On R., Parker J.D.A. The Handbook of Emotional Intelligence: Theory, Development, Assessment, and Application at Home, School, and in the Workplace. – San Francisco: Jossey-Bass, 2000.
4. García-Tudela P.A., Marín-Sánchez P. Education of Emotional Intelligence at School-age: An Exploratory Study From the Teaching Perspective. *Revista Electrónica Educare*. – 2021. – Vol. 25, No. 3.
5. Valenzuela-Santoyo A.C., Portillo-Peñuelas S.A. Emotional Intelligence in Primary Education and Its Relationship with Academic Performance. *Revista Electrónica Educare*. – 2018. – Vol. 22, No. 3.
6. Emotional intelligence and academic motivation in primary school students. *Psicologia: Reflexão e Crítica*. – 2022. – Vol. 35.
7. Volkova A.V. Psychological and pedagogical conditions for the development of emotional intelligence in children of primary school age. *Pedagogical Education*. – 2024. – Vol. 5, No. 2. – P. 191–201.
8. Sanda O. The specifics and levels of development of emotional intelligence in primary school pupils. *Acta et Commentationes, Sciences of Education*. – 2024. – Vol. 37, No. 3. – P. 233–240.
9. Emotional intelligence as a predictor for academic achievement of children: Evidence from primary schools of southern Ethiopia. *Social Sciences & Humanities Open*. – 2024. – Vol. 9.
10. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
11. Jamalova K.Sh. Formation of Emotional Intelligence in Primary Students – as a Current Pedagogical Problem. *International Journal of Science and Technology*. – 2025. – Vol. 2, No. 8. – P. 16–19.
12. Bekbo'sinova L. Boshlang'ich sinflarda ijtimoiy-emotsional o'rganishni yo'lga qo'yish. *Markaziy Osiyo ta'lim va innovatsiyalar jurnali*. – 2025.
13. Murotmusayev B., Namazova G.B. Development of Students' Emotional Intelligence as a Socio-Pedagogical Task. *Spectrum Journal of Innovation*. – 2023. – P. 17–19.
14. Umarov B.M., Murotmusayev K.B. Emotional Intelligence as a Psychological Category. *Diversity Research Journal*. – 2023. – Vol. 1, No. 9. – P. 18–24.
15. Khayitova Z.M. Psychological Characteristics of Emotional Intelligence Formation in Primary School Age. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*. – 2021. – Vol. 3, No. 4. – P. 664–669.
16. Salovey P., Mayer J.D. Emotional Intelligence. *Imagination, Cognition and Personality*. – 1990. – Vol. 9, No. 3. – P. 185–211.
17. Mayer J.D., Caruso D.R., Salovey P. Emotional Intelligence: Theory, Findings, and Implications. *Psychological Inquiry*. – 2004. – Vol. 15, No. 3. – P. 197–215.

18. Bar-On R. The Bar-On Model of Emotional-Social Intelligence (ESI). Psicothema. – 2006. – Vol. 18. – P. 13–25.